

## O'ZBEKISTONDA MILLIY Gvardiya ORGANLARI TOMONIDAN MA'MURIY AMALIYOTNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nazarov G'anisher Baxodirovich

*Sirdaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi*

*Yangiyer shaharlararo qo'riqlash bo'limi guruh komandiri, leytenant*

O'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash hamda davlat ob'yektlarini qo'riqlash muhim vazifa hisoblangan. Tarixiy manbalarda sohaga doir qabul qilingan hujjatlar asosida, mamlakatda ichki xavfsizlikni ta'minlash maqsadida faoliyat olib borgan tuzilmalarning nomi, boshqaruv strukturasi, vazifalari va xizmat faoliyati doimiy ravishda o'zgarib borganligi kuzatiladi.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash, aholi tinchligi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ichki qo'riqlash kabi vazifalarni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tarixi aynan shu sohaga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa kuch tuzilmalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tarkibida boshlangan.

«Gvardiya» so'zi – qo'riqlamoq, saqlamoq degan ma'noni anglatadi. Gvardiya dastlab harbiy boshliqning shaxsiy soqsichi vazifasini o'tagan bo'lsa, keyinchalik gvardiyadan jangovar kuch sifatida foydalanila boshlangan hamda bu so'z qo'shinlarning alohida saralangan qismini anglata boshladi.

Gvardiya mazmunidagi askariy qism O'rta Osiyo xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, Somoniylar davlati qo'shinida "turk g'ulomlari", "Amir Temur qo'shinining bahodirlari" qismi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4997-son Qarori[4] bilan, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etish etildi. 2021-yil 3-mart kuni Shavkat Mirziyoyevning „O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o'quv markazlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Nukus shahrida Milliy gvardiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy o'quv markazi tashkil etildi. Shuningdek, Milliy gvardiyaning Farg'ona o'quv markazi Farg'ona mintaqaviy o'quv markaziga, Dashtobod o'quv markazi esa Milliy gvardiyaning Jizzax mintaqaviy o'quv markaziga aylantirildi.

Ushbu mintaqaviy o'quv markazlarda harbiy xizmatchi va xodimlarni boshlang'ich tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha o'quv jarayoni quyidagicha taqsimlangan holda tashkil etiladi: Farg'ona mintaqaviy o'quv markazi – Toshkent shahri, Toshkent, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar uchun;

Jizzax mintaqaviy o'quv markazi – Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar uchun;

Qoraqalpog'iston Respublikasi mintaqaviy o'quv markazi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi va xodimlar uchun.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va rahbarligi ostida so'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko'rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish choralari kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyat o'choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish belgilandi.

O'zbekistonda milliy gvardiya organlari ma'muriy amaliyotni bajarishda bir nechta o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Bu jihatlar qudratli, iste'dodli va o'rta darajali harbiy kuchga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Birinchisi, milliy gvardiya organlari O'zbekistonning xavfsizlik va qo'riqlash sohasidagi asosiy muammo va vazifalarini bajarish uchun tuzilgan. Ularning asosiy vazifalari davlatning mudofaa tizimini ta'minlash, terrorizm, ekstremizm va narkotik suvlar bilan kurashish, qonun hukmiyatini saqlash va jamiyatni xavfsizlikda saqlashdir.

Ikkinchisi, milliy gvardiya organlari harbiy sohada faoliyat yuritadigan amaliyot instituti sifatida ham ishlaydi. Ularning voqealarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan harbiy voqealar uchun tayyorlanish, harbiy jihozlar va texnik vositalarni saqlash, harbiy mashinalarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko'rsatish milliy gvardiya organlarining muhim vazifalari hisoblanadi.

Uchinchi jihat esa milliy gvardiya organlarining o'tgan yillarda rivojlanishi va yangilanishi bilan bog'liq. O'zbekiston milliy gvardiya organlari xususiy harbiy taktika va strategiyalarini rivojlantirish, yangi texnikalar va usullar bilan tanishish, xalqaro

hamkorliklarni o'rnatish va xorijiy mamlakatlarda tajriba olish uchun o'zlarini yanada rivojlantiradilar.

Shunday qilib, milliy gvardiya organlari O'zbekistonda ma'muriy amaliyotni bajarishda qudratli, kuchli va iste'dodli bo'lib faoliyat yuritadi. Ularning xavfsizlik, mudofaa va harbiy sohalarda óziga xos vazifalari hamda rivojlanishi davlatning umumiy xavfsizlikni ta'minlashida muhim ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи

2. Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш. Юрид. фан. номзоди. Дис.-Т., 2008. – Б. 114.

3. Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари тўғрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, – 2017. – № 37. – 978-м.

4. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 789-799.